

TIL VA TAOM: O'ZBEK GASTRONOMIYASINING FRAZELOGIYADA  
O'RNI

Fayzullayeva Nilufar Otabekovna

BuxDPI II bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqola o'zbek tili frazeologiyasining lingvokulturologik aspektlarini oziq-ovqat va pazandachilik leksikasi misolida tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan ba'zi bir iboralar orqali o'zbek xalqining maishiy hayoti, ijtimoiy munosabatlari va milliy mentaliteti tahlil qilinadi. Maqolada ushbu frazeologizmlarning semantik transformatsiyasi va ularda xalqning adolat, ehtiyotkorlik hamda hayotiy tajribaga oid qarashlari qanday aks etgani ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** fraza, gastronomiya, gastranom, lingvomadaniyat, nomos, komponent, tilshunoslik, gastronomik ibora;

**Abstract:** The article is devoted to the study of the ethnolinguistic and linguacultural aspects of Uzbek phraseology, specifically focusing on food and culinary vocabulary. Through the analysis of selected idiomatic units, the research explores the daily life, social relations, and national mentality of the Uzbek people. The paper provides a scientific substantiation of the semantic transformation of these phraseological units, illustrating how folk perspectives on justice, prudence, and practical life experience are embedded within the linguistic fabric.

**Keywords :**Phraseologism, phrase, gastronomy, culinary terminology, linguoculture, ethno-semantics, linguistics, gastronomic idiom.

**Аннотация:** Данная статья посвящена исследованию лингвокультурологических аспектов узбекской фразеологии на примере лексики, связанной с пищей и кулинарией. На примере отобранных фразеологизмов анализируются бытовой уклад, социальные отношения и национальный менталитет узбекского народа. В статье научно обоснована семантическая трансформация данных единиц, а также раскрывается отражение народных представлений о справедливости, осмотрительности и жизненном опыте в языке.

**Ключевые слова :**Фразеологизм, устойчивое выражение,гастрономия, кулинарная лексика, лингвокультурология, этнолингвистика, языкознание, гастрономическая идиома.

## KIRISH

Til millatning tirik tarixidir. O'zbek xalqi azal-azaldan ziroat, dehqonchilik va pazandalik san'ati bilan dong taratgan. Uning tafakkur tarzi va tili ham aynan shu tushunchalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Biz kundalik hayotda ishlatadigan ko'plab iboralar aslida oddiy oshxona yumushlaridan olingan bo'lsa-da, ular jamiyatdagi murakkab insoniy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda "gastronomik

frazeologizmlar” deb ataluvchi bunday birliklar shunchaki barqaror birikma emas, balki ular lingvomadaniy munosabatni tashuvchi birliklar hisoblanadi. Ular orqali xalq nimanidir ma’qullaydi, nimanidir keskin qoralaydi. O‘zbek tilida gastronomim tarkibli – taom, yegulik nomlari ishtirok etgan frazemalar ko‘p uchraydi. Bu iboralardagi har bir gastronomik nomlar bejiz fraza tarkibiga kirib turg‘unlashmagan. Har biri lingvomadaniy kod bo‘lib, ma’no tashiydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Gastronom” so‘zining kelib chiqishi yunon tiliga borib taqaladi. “Gastēr” grekcha so‘z bo‘lib, "oshqozon" yoki "qorin" degan ma'nolarni anglatadi, “nomos” esa "qonun," "qoida," yoki "tartib" degan ma'nolarni beradi. Dastlab, "oshqozon qonuni" yoki "taom tartibi" kabi tushunilgan keyinchalik rivojlanib, yaxshi taom tayyorlash san'ati, nafis yeb-ichish madaniyati va ovqatlanish ilmi ma'nosini olgan. Bu tushunchadan kelib chiqqan holda, “gastronom”so‘zi odatda yaxshi ovqatlardan xabardor, lazzatli taomlarni qadrlaydigan ma'nolarni anglatgan. Bu so‘zning keng tarqalishida fransuz tili (gastronome) muhim rol o‘ynagan, chunki gastronomiya tushunchasi aynan Fransiyada 18-19-asrlarda yuqori darajada rivojlangan. Qisqasi, "gastronom" so‘zining asosi qadimgi yunon tiliga bog‘liq bo‘lsa-da, uning hozirgi ma'nosi fransuz madaniyati ta'sirida shakllangan. Oshxonani ba'zi shevalarda “gastxona” deb ham atash shundan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin.

O‘zbek tilida **“Chuchvarani xom sanamoq”** (chuchvara+ni+sifat+fe‘l) iborasi shoshqaloqlik va oldindan xulosa chiqarish kerakligini anglatuvchi ma’noni ifodalaydi. Ma’lumki, chuchvara tugish va uni pishirish — mehnat talab jarayon. Qozonga tushmagan xamir hali taom hisoblanmaydi. Xalqimiz bu ibora orqali insonni shoshqaloqlikdan qaytaradi. Natijasi hali noma’lum ish yuzasidan oldindan hukm chiqarish kerakmasligi ta’kidlanadi. Bu yerda lingvomadaniy urg‘u “chuchvara” so‘ziga tushadi. “Chuchvara” bu bizning milliy taomlarimizdan biri bo‘lgani uchun ham turg‘un birikma orqali tilimiz leksik qatlamiga kirgan. Nega aynan "Chuchvara"? Bu iborada aynan "chuchvara" so‘zining kelishi bejiz emas. Bunga bir nechta lingvistik va madaniy sabablar mavjuddir. Chuchvara - o'zbek oshxonasidagi eng kichik, mo'rt va nozik xamir ovqatlaridan biri. Uni xomligicha pishgan deb o'ylash, qilayotgan ishni juda oson, yuzaki va arziyas deb bilishga ishora qiladi. Go'yoki “bu kichkina chuchvarani pishirish oddiy ish” degan tasavvur noto'g'ri ekanligini anglatadi. Xomlik - tajribasizlik va ishonchsizlik belgisidir. Demak, bu ibora shunchaki pazandalik terminologiyasi emas, balki sabr va ehtiyotkorlik madaniyatining lisoniy ifodasidir.

“CHalpak qilmoq” ikkala qo‘l va oyog‘idan ushlab cho‘zilib ko‘tarmoq. (Tez yur! G‘iring desang, chalpak qilamiz. Oybek. Bolalik). “CHalpak bo‘lmoq” yoki “chalpak bo‘lib tushmoq” yiqilib uzala tushmoq, chalqanchasiga yiqilmoq; chalqancha yotmoq. (Jim bo‘l-e, bir ura, chalpak bo‘lib tushasan-u, kekirdak cho‘zishingni qara! Z.Fatxullin.

Obihayot. Yuzlarini oftobdan yashirib, chalpak bo'lib yotib qoldilar. M.Mansurov.).<sup>3</sup> Birinchi iborada shoshqaloqlik tanqid qilingan bo'lsa, keying iborada qo'rqitish, jazolash yoki tahdid qilish ma'nosini mavjuddir. "Chalpak qilmoq" iborasi aslida, topilgan ma'lumotlarga ko'ra, kinoya yoki jazo ma'nosida ishlatiladi. Uning lug'aviy ma'nosi (ba'zi manbalarda berilgan): "Ikkala qo'l va oyog'idan ushlab ko'tarmoq" ekan. Bu holatda, odamni noqulay va ojiz holatga solish, masxara qilish yoki jazolash ma'nosini beradi. "Chalpak" so'zining o'zi esa yupqa, yassi non (yog'da pishirilgan non) turini anglatadi. Shu ma'nodan kelib chiqib, bu ibora "yassi, maydalab tashlash", "maydalab, ezib yuborish" kabi jiddiyroq, hatto jismoniy jazo bilan tahdid qilish ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Bu ibora biror kimsani shoshiltirish, qo'rqitish va unga so'zsiz bo'ysunishni talab qilish uchun ishlatiladigan ogohlantirish ham bo'lishi mumkin.

**“Sho'riga sho'rva to'kilmoq”** (sho'ri+ga+sho'rva+fe'l+il+moq). Bu yerda omonimiya vositasida “sho'r” (ta'm) va “sho'r peshona” (baxtsizlik) tushunchalari birlashtirilgan. Tasavvur qiling, shundoq ham sho'r bo'lgan ovqatga yana sho'rva qo'shilsa, u mutlaqo yaroqsiz holga keladi. Hayotda ham bir musibat ustiga ikkinchisining kelishi xalq tilida ana shunday achchiq metafora bilan ifodalanadi. Bu o'rinda “sho'rva” so'zi taom emas, balki vaziyatni og'irlashtiruvchi omil sifatida keladi. Lingvokulturologik jihatdan qaraganda, bu ibora o'zbeklarning taqdir sinovlariga nisbatan qarashini va dardni obrazli, badiiy ifodalashga moyilligini namoyon etadi.

**“Og'izdagi oshni oldirmoq”**(ot+i+dagi+ osh+ni+ fe'l) iborasining strukturasi juda qiziq. Ushbu iborada (“og'iz”) va gastronomik komponent (“osh”) birliklari birlashgan holda lingvomadaniy xususiyatni ko'rsatuvchi fraza paydo bo'lgan. O'zbek madaniyatida “osh” (non, taom) - bu shunchaki yegulik emas, u rizq va nasiba ramzidir. “Og'izdagi osh” esa insonga tegishli bo'lgan, u erishib turgan halol haqqini bildiradi. Kimningdir og'izdagi oshini oldirish — bu ojizlik, laqmalik yoki birovning zo'ravonligi qurboni bo'lish demakdir. Ushbu frazeologizm jamiyatda laqma, sodda va go'l insonlarni anglatuvchi birlik sanaladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi gastronomik frazeologizmlar xalqimizning ko'p asrlik hayot falsafasini o'zida jamlagan noyob xazinadir. Ushbu tadqiqot natijalari o'zbek frazeologik fondida gastronomik leksika bilan bog'liq barqaror birikmalarning lingvomadaniy o'rni va funksiyasini tahlil qilish orqali, ularning til birliklari, etnomadaniy axborot tashuvchilar ekanligini isbotladi. Tadqiqot obyekti hisoblangan gastronomik frazemalar o'zbek tiliga xos bo'lgan individual xususiyatlarini ta'kidlaydi. Masalan, salbiy qismatni ifodalashda (sho'rva) suyuq ovqat obrazining qo'llanilishi, o'zbek milliy oshxonasining asosiy taomlari — suyuq va issiq taomlarga bo'lgan ijtimoiy munosabat

<sup>3</sup> O'zbek tili frazeologik lug'ati : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afurG'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – bet-628.

bilan bevosita bog'liq. Bu holat, tilning o'z milliy turmush tarzi elementlari orqali g'oyalarni kodlash mexanizmini namoyish etadi.

O'zbek tilidagi gastronomik frazemalar milliy madaniyatning maishiy va ijtimoiy an'analarini saqlovchi va uzatuvchi asosiy lingvomadaniy kodlar rolini bajaradi. Ular tilga nafaqat leksik boylik, balki konseptual tizimning barqaror elementlari sifatida kiradi. Frazemalarning barqarorligi ularning chuqur motivatsiyalangan ichki shakli bilan bog'liq. Taom nomlari (osh, sho'rva, chuchvara) har doim hayotning muhim jabhalari (muvaffaqiyat, omadsizlik, reja) bilan assotsiativ ravishda bog'lanadi. Mazkur frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili pragmatik-kommunikativ va madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirish maqsadida o'zbek tilini o'qitish metodikasiga integratsiya qilish uchun zarur material vazifasini o'taydi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili gastronomik frazeologiyasi faqat leksik tahlil obyekti emas, balki til egalarining dunyoqarashi, kundali ijtimoiy munosabatlari va an'anaviy falsafasini o'zida mujassam etgan noyob semiotik tizimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili frazeologik lug'ati : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – bet-636.
2. Виноградов, В. В. Очерки по истории русского литературного языка – Москва: Наука, 1972. – 312 с.
3. Шанский, Н. М. Фразеология современного русского языка – Москва: Высшая школа, 1985. – 160 с.
5. Маслова, В. А. Лингвокультурология – Москва: Академия, 2001. – 208 с.